



## KAMBAG`ALLIK VA TENGSIZLIKNI O`LCHASH KO`RSATKICHLARI

*Sharipova Malika Maxmudjon qizi*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomotiya universiteti, Xalqaro*

*iqtisodiyot va menejment magister yo`nalishi*

*XIM-03 guruh talabasi*

[\*msharipova928@gmail.com\*](mailto:msharipova928@gmail.com)

*+998914756570*

**Annotatsiya:** *Kambag'al va boy bo'lishlik o'rtasida katta farq bor ekanligi hammamizga ma'lum. Olimlar ularning o'rtasidagi farqni aniqlash va kamaytirish uchun turli xil izlanishlar olib borishgan. Ularning izlanishlaridan esa bu ikkisi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun, avvalambor, kambag'allik tushunchasiga alohida urg'u berish lozim bo'ladi. Shu o'rinda, kambag'allik haqida turli xil tadqiqotchilar o'zlarining iqtisodiy va iqtisodiy bo'lmagan fikrlarini ham aytib o'tishgan va o'lchov formulalari yaratishgan*

**Kalit so'zlar:** *kambag'allik, tengsizlik, kambag'allik chegarasi*

Kambag'allik jamiyat tomonidan e'tirof etilgan minimal yashash standartlari darajasidagi iste'molga imkon bermaydigan turmush sharoitidir. Kambag'allik muammosi u yoki bu shaklda har qanday jamiyatda o'zini namoyon qiladi. Aynan mana shu jihati bilan u universaldir va doim jamiyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Biroq, shunga qaramasdan aytib o'tganimizdek, uning aniq, umum qabul qilingan ta'rifi yo'q. Shu tabiati bilan u munozarali va doimiy ravishda aniqlanib, o'zgartirib kelinadi.<sup>1</sup>

“XXI asrda kapital” asarining muallifi Tomas Piketti kambag'allikning asosiy omili sifatida tengsizlikka e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotida boylikning kam sonli odamlar qo'lida konsentratsiyasi ortib borayotgani va uning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy harakatchanlikka ta'siri ta'kidlangan. "Kapitalning daromadlilik

<sup>1</sup> <https://www.merriam-webster.com/dictionary/poverty>



darajasi iqtisodiy o'sish sur'atlaridan doimiy ravishda yuqori Bu boylik tengsizligining kuchayishiga va natijada kambag'allikka olib keladi." - deydi u.<sup>2</sup>

Aytish mumkini, kambag'allikni baholashda asosiy unsur bu kambag'allik chegarasi bo'lib aynan mana shu chegara kambag'allik chegarasi va aholining kambag'al qatlamini baholashga imkon beradi. Kambag'allikni baholashga qaratilgan o'lchov turlariga biz, kambag'allik chegarasidan pastda yashovchi aholi qismi yoki kambag'allar indeksi (HCR, head count ratio), kambag'allik tafovuti indeksi (Poverty-gap measure/index), FGT o'lchovi yoki indeksi (Foster-Grir-Torbek indeksi) kabilarni misol qilishimiz mumkin.

1. *Kambag'allar indeksi* (Head count index). Ushbu kambag'allik ko'rsatkichi eng keng tarqalgan o'lchov indeksi bo'lib, u kambag'allik chegarasi sifatida qo'yilgan daromaddan past daromad ko'ruvchi aholi qismini hisoblaydi. Umumiy qilib, kambag'allar indeksi yoki, kambag'allik chegarasidan pastda yashovchi aholi indeksini quyidagi tenglikda ifodalash mumkin:<sup>3</sup>

$$H = \frac{G}{N}$$

Bunda  $H$  - kambag'allar indeksi bo'lsa,  $G$  - kambag'allarning soni,  $N$  - aholining umumiy sonidir.

2. *Kambag'allik tafovuti indeksi* (Poverty-gap index). Kambag'allik tafovuti indeksi aholining aynan qaysi qismi kambag'allik chizig'idan pastda ekanligini, ya'ni kambag'allik chizig'iga nisbatan kambag'allarni ifodalaydi.

$$P(0) = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N \left( \frac{z - y(i)}{z} \right)$$

Bunda,  $P(0)=PGI$ - ya'ni kamag'allik tafovuti indeksi,  $N$ - umimiy aholi soni bo'lsa,  $q$ - kambag'allar soni,  $z$ - kambag'allik chizig'i,  $y$ - kishi boshiga daromad,  $i$ - kambag'allik chizig'idan pastda yashovchilardir.

<sup>2</sup> Thomas Piketty, Capital in the 21st Century, 2013

<sup>3</sup> Handbook on Poverty Statistics: Concepts, Methods and Policy Use Special Project on Poverty Statistics in United Nations Statistics Divison, 2005, December



3. *Kvadratli kambag`allik tafovuti (indeksi)*. Yoki Foster-Grig-Torbek indeksi:

$$FGT^{\alpha} = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N \left( \frac{(z - y(i))}{z} \right)^{\alpha} I(y, z)n(i)$$

Foster-Grig-Torbek indeksini kambag`allikni baholashda foydalaniladigan matritsalar oilasi deb aytish mumkin. Bunda uning birinchi ko`rinishi yuqorida ko`rsatilgan kambag`allik tafovuti indeksi ( $P(0)$ ) hisoblanadi. Ularning orasida eng keng tarqalgani bu kvadratli indeks (FGT2) bo`lib, bunda  $\alpha = 2$  teng bo`ladi. Shuningdek, FGT2 indeksi orqali hisob-kitobni kambag`allarning eng tub qismiga bog`lagan holda kombinatsiyalashtirish mumkin.

Tengsizlik kambag`allikdan ko`ra keng tushuncha, uning o`lchovi nafaqat kambag`allarga, balki butun boshli aholiga bog`liqligi bilan ahamyatliroqdir. Shuning uchun ham tengsizlik osonlika boylar va kambag`allarga bo`lib qo`yadi. O`z navbatida tengsizlik o`lchovlari tarqalish darajasini emas, balki tarqalishning o`zini ko`rsatadi, ya`ni u bilan yonma-yon keladi.

*Jini koeffitsienti*. Jini koeffitsienti tengsizlikni o`lchashda eng ko`p qo`llanadigan usuldir. Bunda koeffitsient 0 va 1 raqamlari orasida yotadi: 0 mukammal tenglikni ko`rsatsa, 1 mukammal tengsizlikni ifodalaydi. O`z-o`zidan ushbu ko`rsatkichlar o`z bir odam barcha daromadga egalik qilganda, boshqasi hech qanday daromadga ega emasligini anglatadi. Agar koeffitsient grafik ko`rinishda ifodalansa, Lorens egri chizig`i va tenglik chizig`i orasida yotadi.

$$Jini\ koeffitsienti\ (G) = \frac{A}{A + B}$$

$$G = 1 - sum$$

1.3.1. formulada ifodalangan, A- Lorens egri chizig`idan yuqori qism bo`lsa, B- Lorens egri chizig`idan pastki qismdir.



*Teil indeksi.* Jini koeffitsent kabi ko`p foydalaniladigan bu indeks bo`lib, Teil indeksi boshqa indekslardan ma`lum hudud va guruhlarga tarqalishi bilan yaxshiroqdir. Shunga qaramay, Teil indeksi Jini koeffitsienti kabi o`lchovlarni to`g`ridan to`g`ri namoyish qilmaydi, biroq kamchiliklarni ko`rsatishda qo`l keladi.

$$T = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N \left( \frac{x(i)}{x} \ln \frac{x(i)}{x} \right)$$

Formulada  $x(i)$ - kishi daromadi bo`lsa,  $x$ - bu aholining o`rtacha daromadidir.

*Desil koeffitsenti* (Decile dispersion ratio). Ushbu koeffitsent ham ba`zan ishlatilib, odatda o`rtacha iste`mol xarajati yoki aholining eng boy qism 10% daromadini quyi qismning o`rtacha 10% daromadini taqsimlash orqali hisoblanadi. Shuningdek, Desil koeffitsenti orqali aholining 5%ini tashkil qilib, 95% iste`molga ega bo`luvchi eng boy qatlamini, qolgan 5% likka bo`lgan taqsimotni ham hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilar kambag`allik va tengsizlikni raqamlard va foizlarda ifodalash uchun qo`l keladi. Ammo ushbu tushunchalarga chuqurroq singish uchun boshqa nazariy ko`rinishdagi o`lchovlar ham yo`q emas.

#### **Foydalanilgan adabiyot va saytlar:**

1. Jonatan Haungton and Shahidur R. Khander Poverty and Inequality, World Bank
2. Thomas Piketty, Capital in the 21st Century, 2013
3. E Philip Davis and Miguel Sanchez-Martinez-A review of the economic theories of poverty, Natio Institute of Economic and Social Research, 2014
4. Handbook on Poverty Statistics: Concepts, Methods and Policy Use Special Project on Poverty Statistics in United Nations Statistics Divison, 2005, December
5. <https://www.worldbank.org/en/>
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/poverty>